ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 4

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME - 4

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI*:*
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MUAMMOLI VAZIYATLARNI YECHISHDA IJODIY TAFAKKURNI O‘RNI

Toshtemirova Gulsanamoy Ilhomjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti Ta’lim tarbiy nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) yo‘lanishi 1- bosqich magistiranti Toshtemirova
E-mail: gulsanamtoshtemirova789@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari va metodlari yoritilgan. Tadqiqotda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish orqali o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirish va ularni mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida qo‘llaniladigan muammoli ta’lim texnologiyasining o‘quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirishdagi samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, muammoli vaziyat, ijodiy fikrlash, kompetensiya, kognitiv faollik, mantiqiy tafakkur, metodika.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические основы и методы развития компетенции творческого мышления у учащихся начальных классов. В исследовании анализируются вопросы повышения когнитивной активности учащихся и их ориентации на принятие самостоятельных решений посредством создания проблемных ситуаций. Также обоснована эффективность технологии проблемного обучения, применяемой в учебном процессе для формирования интеллектуального потенциала учащихся.

Ключевые слова: Начальное образование, проблемная ситуация, творческое мышление, компетенция, когнитивная активность, логическое мышление, методика.

Abstract. This article examines the pedagogical foundations and methods for developing creative thinking competence in primary school students. The research analyzes issues of increasing students' cognitive activity and directing them toward independent decision-making by creating problem-based situations. Furthermore, the effectiveness of problem-based learning technology used in the educational process to shape students' intellectual potential is substantiated.

Keywords: Primary education, problem-based situation, creative thinking, competence, cognitive activity, logical thinking, methodology.

KIRISH.

Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda ta’lim tizimi oldida turgan eng katta vazifa - o‘quvchiga shunchaki ma’lumotlar to‘plamini berish emas, balki unda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishdir.

ISSN 3030-3907

Negaki, texnologiya har qancha rivojlanmasin, insonning noodatiy yondashuvi va yangi g‘oyalar yaratish qobiliyati har doim birinchi o‘rinda turadi.

Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va yosh avlodni intellektual salohiyatli kadrlar etib tarbiyalash bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zero, millat ertasi bo‘lgan yoshlarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularda mustaqil va ijodiy yondashuvni shakllantirish borasidagi vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlarida o‘zining huquqiy va strategik aksini topgan. Maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturini to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

- jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag‘batlantirish;

- o‘qituvchilarning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

- umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg‘or maktab direktori va namunali o‘qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish;

- umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo‘nalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, bola ta’lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o‘rnini oshirish;

Prezidentimiz aytganlaridek, ta’lim va tarbiya doim yonma-yon yurishi kerak, bu qarorlar ham aynan shunga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘quvchilarga shunchaki tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, mavjud muammolarga original yechimlar topishga o‘rgatish ustuvor vazifaga aylandi. Ayniqsa, shaxsning intellektual poydevori qo‘yiladigan boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish o‘quv jarayonining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi. Muammoli vaziyat - bu o‘quvchi uchun yangi bo‘lgan, uning mavjud bilimlari

ISSN 3030-3907

bilan kutilayotgan natija o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalovchi intellektual qiyinchilik holatidir. Aynan mana shu nuqtada ijodiy tafakkur asosiy vosita sifatida maydonga chiqadi. Agar an’anaviy ta’limda o‘quvchi xotiraga tayanib harakat qilsa, muammoli vaziyatda u tahlil qilishga, farazlar ilgari surishga va nostandart yechimlar izlashga majbur bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni yechish bosqichlarida o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri qanday namoyon bo‘lishini aniqlash hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Boshlang‘ich sinflarda muammoli vaziyat tushunchasi Boshlang‘ich ta’limda muammoli vaziyat - bu o‘quvchi o‘zlashtirgan mavjud bilimlar va yangi paydo bo‘lgan intellektual to‘siq o‘rtasidagi ziddiyatdir. O‘quvchi muammoni hal qilish uchun tayyor algoritmni topa olmaganida, unda ijodiy qidiruv instinkti uyg‘onadi. Bu jarayon bevosita o‘quvchining mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Ijodiy tafakkurning tarkibiy qismlari Muammoli vaziyatlarni yechishda ijodiy tafakkur quyidagi uchta muhim komponent orqali namoyon bo‘ladi. Tafakkurning ravonligi, muammoning bir nechta yechim variantlarini tezkorlik bilan o‘ylab topish. Moslanuvchanlik Vaziyatga turli burchaklardan qaray olish va strategiyani oson o‘zgartirish. O‘ziga xoslik , standart bo‘lmagan, kutilmagan va yangi yechimlarni taklif etish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida, ayniqsa, tabiiy fanlar darslarida muammoli vaziyatlarni loyihalar orqali yechish yuqori samara beradi. Masalan, "O‘simliklar qanday sharoitda yaxshi rivojlanadi?" degan muammoli savol atrofida kichik tadqiqot loyihasini tashkil etish o‘quvchini kuzatishga, farazlar tuzishga va tajriba o‘tkazishga undaydi. Bu jarayonda ijodiy tafakkur shunchaki nazariya emas, balki amaliy tajribaga aylanadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muammoli vaziyatlardan foydalanish muhim pedagogik usullardan biri hisoblanadi. Muammoli vaziyat - bu o‘quvchi oldiga shunday masala qo‘yiladiki, u mavjud bilimlari bilan darhol javob topa olmaydi va izlanishga majbur bo‘ladi. Aynan shu jarayonda o‘quvchining fikrlash faolligi ortadi, yangi g‘oyalar yuzaga keladi va ijodiy yondashuv shakllanadi. Ijodiy tafakkur - bu o‘quvchining noodatiy fikrlashi, yangicha yechimlar topa olishi va mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bu qobiliyatni rivojlantirish uchun o‘qituvchi dars jarayonida turli interfaol metodlardan, qiziqarli topshiriqlardan va muammoli savollardan samarali foydalanishi lozim. Muammoli vaziyatlarni yaratishda o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olishi zarur. Juda murakkab yoki tushunarsiz vaziyatlar o‘quvchini qiziqtirmasligi mumkin, aksincha, ularning bilim darajasiga mos,

ISSN 3030-3907

lekin biroz qiyinchilik tug‘diradigan topshiriqlar eng samarali hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda o‘quvchi mustaqil fikrlashga harakat qiladi, xatolar orqali o‘rganadi va o‘z xulosalarini shakllantiradi. Dars jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanishning yana bir muhim jihati - bu hamkorlikda o‘qitishni yo‘lga qo‘yishdir. Guruhda ishlash, fikr almashish va bahs-munozaralar orqali o‘quvchilar bir-birining fikridan ilhomlanadi, turli yechimlarni solishtiradi va eng maqbul variantni tanlashni o‘rganadi. Bu esa nafaqat ijodiy tafakkurni, balki muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilarda mustaqillik, mas’uliyat va o‘ziga bo‘lgan ishonch ham shakllanadi. Chunki o‘quvchi o‘zi topgan yechimdan qoniqish hosil qiladi va keyingi vazifalarga yanada faolroq yondashadi. Natijada ta’lim jarayoni samaradorligi oshadi va o‘quvchilar bilimni chuqurroq o‘zlashtiradi, boshlang‘ich ta’limda muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu usul orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki uni mustaqil qo‘llash, tahlil qilish va yangi g‘oyalar yaratish ko‘nikmalariga ham ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI Boshlang‘ich ta’limda muammoli vaziyatlar orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalasi bugungi kunda zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida keng o‘rganilmoqda. So‘nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish usullaridan farqli ravishda, o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etuvchi muammoli yondashuv uning fikrlash jarayonini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim nazariyasida John Hattie tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. U o‘zining “ko‘rinadigan ta’lim” (Visible Learning) konsepsiyasida o‘quv jarayonida o‘quvchining faol ishtiroki, fikrlashi va refleksiyasi yuqori natijalarga olib kelishini ilmiy asoslab beradi. Hattie ta’kidlashicha, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning chuqur o‘rganishiga xizmat qilib, ularni yuzaki bilimdan ko‘ra mazmunli tushunchalarga yo‘naltiradi.

Shuningdek, Carol Dweck ning “o‘sish tafakkuri” (growth mindset) nazariyasi ham ushbu mavzu bilan bevosita bog‘liqdir. Unga ko‘ra, o‘quvchilarda qiyinchiliklarga ijobiy munosabatni shakllantirish, xatolarni rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilish ijodiy tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi. Muammoli vaziyatlar aynan shunday sharoit yaratib, o‘quvchini yangi yechimlar izlashga undaydi. Bundan tashqari, Ken Robinson ta’lim tizimida ijodkorlikni rivojlantirish zarurligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, maktab ta’limi o‘quvchilarning tabiiy qiziqishi va ijodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlashi lozim. Muammoli vaziyatlar esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirib, ularning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi.

ISSN 3030-3907

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muammoli ta’lim (problem-based learning) texnologiyasi alohida o‘rin egallaydi. Howard Barrows tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuv o‘quvchilarni real hayotga yaqin muammolarni hal qilish orqali o‘rganishga asoslanadi. Bu usul boshlang‘ich ta’limda ham moslashtirilgan holda qo‘llanilib, o‘quvchilarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mahalliy va zamonaviy o‘quv qo‘llanmalarda ham interfaol metodlar, STEAM yondashuvi, hamkorlikda o‘qitish kabi innovatsion texnologiyalar orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Bu manbalarda muammoli vaziyatlar o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undovchi, ularning bilimlarini amaliyot bilan bog‘lovchi samarali vosita sifatida qaraladi. Zamonaviy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kun pedagoglari uchun muammoli ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llash, o‘quvchilarning mustaqil va kreativ fikrlashini shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Dars jarayonida muammoli topshiriqlarni muntazam qo‘llash natijasida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va turli yechim variantlarini ilgari surish ko‘nikmalari sezilarli darajada shakllanadi. Ayniqsa, o‘quvchilar bir xil masalaga turli yondashuvlar orqali yechim topishga harakat qilishi ularning kreativ fikrlash darajasi oshganligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. An’anaviy darslarga nisbatan bunday yondashuvda o‘quvchilar faolroq ishtirok etadi, savollar beradi va o‘z fikrini erkin ifodalashga intiladi. Natijada o‘quv jarayoni jonlanadi va bilimlar mustahkamroq o‘zlashtiriladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonch ortadi, ular o‘z fikrini himoya qilish va asoslashga o‘rganadi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, muammoli ta’limni samarali tashkil etish o‘qituvchining metodik mahoratiga bevosita bog‘liq. Agar o‘qituvchi muammoli vaziyatni to‘g‘ri tanlasa va uni o‘quvchilarning yosh hamda bilim darajasiga mos ravishda taqdim etsa, natija yuqori bo‘ladi. Aks holda, juda murakkab yoki tushunarsiz vaziyatlar o‘quvchilarda qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, muammoli vaziyatlarni guruhda ishlash, bahs-munozara va interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirish yanada samarali natijalar beradi. Bunday sharoitda o‘quvchilar bir-birining fikridan foydalanadi, turli nuqtai nazarlarni solishtiradi

ISSN 3030-3907

va eng maqbul yechimni tanlashga harakat qiladi. Bu esa nafaqat ijodiy tafakkurni, balki kommunikativ ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Umuman olganda, olingan natijalar va olib borilgan muhokamalar shuni tasdiqlaydiki, boshlang‘ich ta’limda muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot doirasida olingan natijalar muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasiga, balki ularning fikrlash uslubiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, bunday yondashuv qo‘llanilgan sinflarda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi bilan bir qatorda ijodiy yondashuvi ham rivojlanganligi kuzatiladi. O‘quvchilar muammoga duch kelganda faqat bitta to‘g‘ri javobni izlash bilan cheklanib qolmay, balki bir nechta muqobil yechimlarni ilgari surishga intiladi.

Natijalarga ko‘ra, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi. Ular dars davomida passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o‘quvchilarda bilimni mustaqil egallash, uni amaliyotda qo‘llash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, ochiq turdagi savollar va hayotiy misollar asosida yaratilgan muammoli topshiriqlar o‘quvchilarning qiziqishini yanada oshiradi. Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi: muammoli ta’limni samarali amalga oshirish uchun o‘qituvchi darsni puxta rejalashtirishi va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Har bir o‘quvchining fikrlash darajasi va qiziqishi turlicha bo‘lganligi sababli, muammoli vaziyatlar differensial yondashuv asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa barcha o‘quvchilarni dars jarayoniga jalb etish imkonini beradi.

Shuningdek, kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, muammoli vaziyatlar orqali o‘qitish o‘quvchilarning xatolarga bo‘lgan munosabatini ham o‘zgartiradi. An’anaviy darslarda xato ko‘pincha salbiy baholansa, muammoli ta’limda xato o‘rganish jarayonining bir qismi sifatida qabul qilinadi. Bu esa o‘quvchilarda qo‘rquvni kamaytirib, erkin fikrlash va tajriba qilishga undaydi.

Bundan tashqari, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirishi aniqlandi:

- muammoni tahlil qilish va asosiy jihatlarini ajratib olish;
- sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish;
- mantiqiy xulosa chiqarish;
- o‘z fikrini asoslab berish;
- jamoada ishlash va boshqalar fikrini hurmat qilish.

Natijalar muhokamasi shuni ham ko‘rsatadiki, muammoli ta’limni boshqa zamonaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish yanada yuqori samaradorlik beradi.

ISSN 3030-3907

Masalan, loyihaviy o‘qitish, interfaol o‘yinlar va AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) bilan birgalikda qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini kompleks ravishda rivojlantiradi. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda samarali, zamonaviy va natijador yondashuv hisoblanadi. Uni to‘g‘ri tashkil etish orqali o‘quvchilarning nafaqat bilim saviyasi, balki mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va innovatsion yondashuv ko‘nikmalari ham shakllanadi.

XULOSA. Boshlang‘ich ta’limda muammoli vaziyatlar orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalasi bugungi zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan nazariy tahlil va amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida muammoli yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi hamda bilimlarni chuqur va ongli o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu sababli, ushbu mavzu pedagogika fanida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning faqatgina bilim olish jarayonini emas, balki ularning aqliy rivojlanishini ham kuchli darajada rag‘batlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tabiatan qiziquvchan bo‘lib, ular atrofdagi hodisalarni tushunishga, savollar berishga va yangi narsalarni bilishga intiladi. Aynan shu tabiiy xususiyatni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali ijodiy tafakkurni shakllantirish mumkin. Muammoli vaziyatlar esa ushbu jarayonni amalga oshirish uchun eng qulay pedagogik vosita hisoblanadi. Shuningdek, muammoli ta’lim o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi. An’anaviy ta’limda o‘quvchi ko‘pincha tayyor bilimlarni qabul qiluvchi rolida bo‘lsa, muammoli ta’limda u faol izlovchi va yechim topuvchi shaxsga aylanadi. Bu esa uning shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki mustaqil fikrlay oladigan o‘quvchi kelajakda turli hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladi, muammolarni tahlil qiladi va ularga ijodiy yondashadi.

Tadqiqot davomida yana bir muhim jihat aniqlandiki, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Qiziqarli va hayotiy muammolar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar darsni zerikarli emas, balki qiziqarli va mazmunli faoliyat sifatida qabul qiladi. Bu esa ularning ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

Natijada o‘quvchilar darsda faol ishtirok etadi, savollar beradi va o‘z fikrlarini erkin ifodalaydi. Muammoli vaziyatlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular o‘quvchilarda ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Bir muammo uchun bir nechta yechim variantlarini topish jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini solishtiradi, tahlil qiladi va eng maqbul yechimni tanlashni o‘rganadi. Bu esa

ISSN 3030-3907

ularning kreativ fikrlash darajasini oshiradi. Ijodiy tafakkur esa bugungi kunda nafaqat ta’limda, balki hayotning barcha sohalarida muhim kompetensiya hisoblanadi. Shu bilan birga, muammoli ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalari ham rivojlanadi. Guruh bo‘lib ishlash, fikr almashish va bahs-munozaralarda ishtirok etish orqali ular o‘z fikrini asoslashni, boshqalarning fikrini tinglashni va jamoada ishlashni o‘rganadi. Bu esa ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Demak, muammoli vaziyatlar nafaqat kognitiv, balki ijtimoiy rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, muammoli ta’limni samarali tashkil etish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bevosita bog‘liq. O‘qituvchi muammoli vaziyatni to‘g‘ri tanlashi, uni o‘quvchilarning yosh va bilim darajasiga moslashtirishi hamda darsni qiziqarli shaklda tashkil etishi lozim. Agar muammo haddan tashqari murakkab bo‘lsa, o‘quvchi qiziqishni yo‘qotishi mumkin, aksincha juda sodda bo‘lsa, ijodiy fikrlashni rivojlantirmaydi. Shu sababli, muvozanatni saqlash juda muhimdir. Bundan tashqari, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarda o‘ziga ishonchni shakllantiradi. Ular mustaqil ravishda topgan yechimlari orqali o‘z imkoniyatlarini his qiladi va keyingi vazifalarga yanada ishonch bilan yondashadi. Xatolardan qo‘rqmaslik, ularni tahlil qilish va to‘g‘ri xulosaga kelish ko‘nikmasi ham aynan shu jarayonda shakllanadi. Bu esa o‘quvchilarning psixologik jihatdan barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Avliyaqulov T. X. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. -Toshkent: O‘qituvchi, 2023. – 312 b.
2. Yoqubova N., Karimova M. Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanish Pedagogika va ta’lim jurnali. - Toshkent, 2023.-№2. - B. 45-52.
3. Dweck C. Mindset: The New Psychology of Success. – New York: Random House, 2006. – 320 p
4. Bruner J. The Process of Education. - Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 97 p.
5. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. - London: Routledge, 2009. – 392 p.
6. De Bono E. Lateral Thinking: Creativity Step by Step. – London: Penguin Books, 1990. – 336 p.

ISSN 3030-3907